

DIQQAT: YANGI TANLOV! MEN – YOSH VATANPARVAR

Mamlakatimiz yoshlarini Istiqlol g'oyalari munosib ruhda tarbiyalash, Vatan himoyasiga kamarbasta o'g'lonlarni voyaga yetkazish, yuksak insoniy tuyg'ularga ega barkamol avlodni kamol toptirish kabi ezgu ishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston «Veteran» jangchi-faxriy va nogironlari birlashmasi, O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasi hamkorlikda mamlakatimiz umumta'lim maktablari o'quvchilari, vatanparvarlar sport to'garaklari hamda harbiy-sport guruhlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Men – yosh Vatanparvar» nomli ikki bosqichli respublika tanlovini e'lon qiladi.

I bosqich respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topganining 25 yilligiga bag'ishlanib, 2017-yilning 14-yanvar – «Vatan himoyachilari kuni»da yakunlanadi. Ijodiy ishlar esa 2017-yilning 10-yanvariga qadar qabul qilinadi.

II bosqich natijalari 2017-yilning 1-iyun –

«Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni»da yakunlanadi. Ijodiy ishlar 2017-yilning 20-mayiga qadar qabul qilinadi.

Har ikki bosqich natijalariga ko'ra g'oliblar aniqlanib, ular faxriy yoriq, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi. Eng asosiysi, Sa-

marqand shahriga sayohatga borib, tabarruk qadamjolarini ziyorat qiladilar.

Tanlov quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

Nasr: hikoyalar;

Nazm: she'rlar;

Publitsistika: maqolalar, suhbatlar;

Tasviriy san'at: rasmlar va fotosuratlar.

Ijodiy ishlarda: Vatanparvarlik nima? Yosh Vatanparvar qanday bo'lishi kerak? O'qish va sportdagi yutuqlaringiz, eng asosiysi, Vatanga bo'lgan muhabbat kabi tuyg'ular barq urib turishi kerak.

Ijodiy ishlaringizni «Tong yulduzi» gazetasiga yoki elektron manzilimiz: info@tongyulduzi.uzga yuboring.

Ma'lumot uchun telefonlar:

(0-371) 230-51-95, 244-63-08.

Aziz o'quvchilar!

«TONG YULDUZI»
gazetasiga
2017-yil uchun
obuna mavsumi
boshlandi!

Nashr
ko'rsatkichi –
198

Andijon shahridagi
30-umumta'lim maktabi
o'quvchilari sevimli «Tong yulduzi»
gazetasining yangi sonini zavq
bilan mutolaa qilishmoqda.

SH. MAXMADIYEV olgan surat



KOMILLIK DARSİ

Hazrat Alisher Navoiyning Muhammad ismi bir qo'shnisi bo'lgan ekan. Bir kuni u allomaning uyiga chiqib: «Vaqti-soati kelib qazo qilsam, o'g'lim Xudoyberdi uyni sotadigan ko'rinadi. Sizdan iltimosim, uyning sotilishini oldini oling, yo'qsa, farzandim boshpanasiz ko'chada qolg'usidir», debdi. Navoiy qo'shnisini yupatib, iltimosini bajarishga va'da beribdi. Muhammad o'g'liga uyni sotmaslikni, qachonki o'zga chorasiz qolmasa, Hazrat Navoiyning oldidan o'tishni vasiyat qilibdi.

Vaqti-soati kelib, ota qazo qilibdi. Xudoyberdi uyni sotmoqchi bo'lib otasining vasiyatini esga olibdi va Navoiyga maslahat solibdi. Alloma qo'shni yigitga hovlisidagi eski tandirni buzib yangisini qursa, uning bahosi oshishini aytibdi...

Aziz o'quvchi! Sizga yuqorida hikoya qilganimiz 2-sinf «O'qish» kitobidagi «Tandir» rivoyatidan parchadir. Inson kamolotida insonparvar-

lik, halollik va mardlik kabi oliy tuyg'ular muhim ahamiyat kasb etar ekan, ushbu insoniy fazilatlarning ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi ongiga singdirilishi nechog'li muhimdir.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 2-sinf rahbari Lutfiya Siddiqova bolajonlarni «Tandir» rivoyati bilan tanishtirar ekan, Alisher Navoiyning donishmandligi, ota va farzand munosabatlari, ota-onaning gapini ikki qilish oqibati haqida so'zlaydi.

Xudoyberdining tandirfurushdan tandir olib kelish uchun uch bor urinishi besamar ketgani, uchinchi bor amallab qurgan tandiriga ko'proq loy bostirishi sabab, uning yerga tushib sinishi, huzuriga norozi bo'lib kelgan Xudoyberdiga nisbatan Navoiyning:

«Ey o'g'ill! Birgina tandir qurishni eplolmading. Modomiki, uyni sotib yuborsang, yangi uy-joyning qanday qurasan? Bundan ko'ra, hunar o'rgan. Shunda turmushing yaxshilanadi va uying ham o'zingga qoladi», deb to'g'ri yo'lga boshlashi o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Dars yakunida ustoz mavzuni mustahkamlash uchun savollar berib, o'quvchilarni qizg'in muhokamaga chorladi.

NURBEK



EZGULIK SARCHASHMASI



N. SULTONOV o'lgan suratlar

Ayni kunlarda «Tong yulduzi» tahririyatida «Obuna - 2017» mavsumi qizg'in palлага kirdi. Joylarda tahririyat xodimlari va mushtariylar o'rtasidagi uchrashuvlar va jonli muloqot har ikki tomon uchun ham foydali bo'lmoqda.

Poytaxtimizdagi 300-umumta'lim maktabi o'ziga xos an'analarga ega bilim maskanlaridan biri sanaladi. 3571 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan bu dargohda darslar o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlariga ixtisoslashtirilganligi bois, bu yo'nalish bo'yicha yutuqlari respublika miqyosida ham e'tirof etib kelinadi.

O'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Karima opa G'oiyeva bilan muloqotimiz chog'i ularning bolalar nashrlari borasidagi fikr-mulohazalaridan ko'nglimiz yayradi. Geografiya fani o'qituvchisi Karima opa ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lgan. Uzoq yillik mehnat faoliyati davomida ularning birortasi maftunkor yurtimiz tarovati bilan bo'yasha olmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, dunyoni yaqindan tanishda ommaviy nashrlar roli beqiyos ekanligini ham doimo shogirdlariga uqtirib keladi.

Yana bir e'tiborli jihati, o'qish, sport, san'at va boshqa yo'nalishlarda yutuqlarga erishgan o'quvchilarni sanab charchamasliklari kishini hayratga soladi. Suhbatimiz chog'i gazetamizda yoritilishi lozim bo'lgan bir qator mavzularni taklif etib, bu borada hamkorlik qilishga tayyor ekanliklari bizni qovontirdi. Maktabdan qaytar ekanmiz, bu maskan o'quvchilari kelgusi yilda ham «Tong yulduzi» gazetasini sevib mutolaa qilishlariga, doimgidek peshqadamlar safida bo'lishlariga ishonдик.

Yusuf ABDULLAYEV

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida ona tili va adabiyot fanlariga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda.

MILLAT KO'ZGUSI

Kuni kecha bu maskanda til bayramiga atab anjuman o'tkazildi. Unda oliy toifali pedagog Nigora Umarova «Til – millat ko'zgusi» mavzusida ma'ruza o'qidi. O'quvchilardan Rayhona Yusupovaning «Tilga e'tibor – elga e'tibor» va Faxriddin Abdumuminovning «Til – aql tarozusi» mavzusidagi chiqishlari ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

O'quv dargohidagi kutubxona doimo o'quvchilar bilan gavjum. Bu yerda «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilingan kuniga bag'ishlab «Davlat tilimiz bilan faxrlanamiz» mavzusida konferensiya o'tkazildi. Unda so'zga chiqqan Norira Rahimova, Alisher Ahmedov, Lola Tursunova kabi o'quvchilar ona

tilimizning so'z boyligi, qadr-qimmatini hamda turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni haqida ma'lumot berishdi.

O'quv dargohida adabiyot to'garagi nashri «Savodxon» devoriy gazetasining bayram sonida yosh lingvistlarning qo'lga kiritgan yutuqlari hamda ijodkor o'quvchilarning she'r, maqola va boshqotirmalari o'rin olgan. Bunda tajribali pedagog Gulnoz Tugilovaning jonkuyarligini alohida aytish lozim.

Tadbir davomida o'quvchilar har bir sinfda ona tilimizni ulug'lash va qadrlash haqida badiiy asarlardan sahna ko'rinishlari namoyish etib, she'rlarni yoddan aytib, ona tilimizni madh etuvchi qo'shiqlar ijro etishdi.

Abdulla SAIDOV

TIL – KO'NGIL GAVHARI

Kuni kecha 8-9-sinf o'quvchilari ishtirokida «Alisher Navoiy – yuraklarda barhayot» mavzusida tuman seminari bo'lib o'tdi.

Tadbirda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimiz Xurshida Raupova, Farida Akromova, Zulfiya Pirmatova ona tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Navoiy bobomiz, tilimiz fidoyilari haqida to'liqlanib ma'ruzalar o'qidilar. 8-«A» sinf o'quvchilaridan Bilol Erkinov, Madina Hamroyeva, Kamron Nurmuhammadov, Mohira Rahimova, Fazilat Mutalova ona tilimizni ulug'lovchi she'r va g'azallardan yod olishgan bo'lsa, 9-«A» sinf o'quvchilaridan Zulayho Hafizova, Farangiz Saydaliyeva, Sarvar Qobiljonov, Sabina Abdullayeva, Kamola Uzoqmirzayeva tilimizning softligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarni aks ettirgan sahna ko'rinishlarini ijro etishdi.

Shuningdek, 5-sinflar o'rtasida «Eng chiroyli husnixat» tanlovi ham bo'lib o'tdi. Unda 5-«A» sinfi Marjona Ergasheva g'olib bo'ldi.

Oylik davomida badiiy


asar qahramonlariga ishlangan rasmlar tanlovi, 8-9-sinflar o'rtasida «Yosh jurnalistlar», «O'zbek adabiyoti bilimdonlari», «Eng yaxshi dars ishlanmasi» tanlovlari ham o'tkazildi. 21-oktyabr kuniga bag'ishlab «Til – millat faxri» mavzusida insholar tanlovinu o'tkazish odat tusiga kirgan. Maktabimizda har yili fan oyiligi ana shunday ko'tarinki ruhda o'tadi.

Dildora MAHMUDOVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



TABARRUK ZIYORATGOH

Go'zal va hamisha navqiron Samarqand shahri 2750 yillik tarixga ega bo'lib, bu qutlug' go'sha ko'plab sayyohlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Samarqand mamlakatimiz tamadduniga katta hissa qo'shgan kentlardan hisoblanadi. 18-oktyabr - Samarqand kuni munosabati bilan sizlarni ushbu go'shadagi Imom al-Buxoriy majmuasi bilan yaqindan tanishtiramiz.



Alloma 810-yilning 20-iyul kuni Buxoro shahrida tavallud topgan. U yoshligidanoq ilm olishga qattiq bel bog'laydi, hadis ilmlarini alohida mehr va ixlos bilan o'rganadi. 825-yil al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan muqaddas Haj safariga yo'l oladi. Keyinchalik ta'lim olish uchun Damashq, Qohira, Basra singari o'sha davrning yirik ilm-fan markazlaridagi mashhur hadishshunos olimlar bilan uchrashadi. Alloma 16 yil davomida ko'plab hadislarini to'plab, ularni tartibga solib, «Al-jome' as-sahih» nomli ulkan asarni yaratadi.

Imom al-Buxoriy safardan qaytgach, ona shahri Buxoroda yashay boshlaydi va ko'plab

ilm-u toliblarga saboq beradi. Ammo hasadgo'ylar hadishshunos olimni tinch qo'ymaydilar.

Shundan so'ng, al-Buxoriy o'z yurtidan chiqib ketib, Samarqand shahri yaqinidagi Xartang qishlog'idagi qarindoshlarinikiga keladi. Bu yerda u biroz yashagach, kasallanib 62 yoshida vafot etadi. U izzat-ikrom bilan Xartang qishlog'idagi qabristonga dafn etiladi va qabr ustiga hashamatli maqbara quriladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan ushbu qadamjo ziyoratgohga aylantiriladi. Bugungi kunda Imom al-Buxoriy ziyoratgohi samarqandliklarning chinakam faxriga aylangan.

Ozoda TURSUNBOYEVA

LESSON 109

GREETING AND MEETING

Vocabulary base

Good morning - Xayrli tong.
 Good day - Xayrli kun.
 Good afternoon, Good evening - Xayrli kech.
 How do you do? Hi. Hello. - Assalomu alaykum. Salom.
 Welcome! - Xush kelibsiz!
 How are you? - Ahvollaringiz yaxshimi?
 Pretty fair, thank you. And what about you? - Yaxshi, rahmat. O'zingiz-chi?
 So-so - Bir navi.
 Not too bad - Yomon emas.



Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

WORDSEARCH PUZZLE

Find and circle 12 words belong to the kitchen in this wordsearch puzzle.

K	R	F	R	E	E	Z	E	R	I	C	K	E	T	T	L	E
N	V	U	K	O	S	J	Q	B	Y	I	T	R	X	Z	D	V
I	K	O	A	H	P	O	T	W	S	B	N	E	M	S	A	O
F	W	B	R	A	I	U	O	L	S	W	L	S	E	O	C	D
E	C	K	A	K	D	L	F	D	F	O	L	E	B	G	Y	L
I	B	C	A	S	S	E	R	O	L	E	Y	L	N	V	C	G
N	E	W	U	I	L	H	E	V	I	F	V	I	N	D	M	Y
G	H	L	P	C	O	L	A	N	D	E	R	N	V	F	E	B
H	L	A	R	A	C	D	U	R	U	C	K	G	O	I	S	R
G	R	A	T	E	R	E	N	N	I	S	E	N	V	E	T	L
L	N	C	B	S	A	K	M	I	X	E	R	Y	E	X	C	O
F	N	E	K	C	O	L	N	Z	X	I	H	J	N	Q	O	A
A	R	Y	H	E	N	Y	B	P	N	D	N	C	N	B	G	Q
R	O	A	S	T	E	R	J	I	O	C	W	H	I	S	K	L

Made by Zohida TURSINOVA, teacher of school №31 in Mirobod district

DO YOU HAVE A BOOK?

In English «to have» implies the meaning of possession (ega bo'lmoq). e.g. I have a job. He has a car.

Positive

I
 We
 You have
 They
 He
 She has
 It

Negative

I
 We
 You have not
 They
 He
 She has not
 It

Question

I
 We
 Have You got...?
 They
 He
 Has She got...?
 It

Painter: YOQUBBEK

Exercise 1. Put in **have got** ('ve got), **has got** ('s got), **haven't got** or **hasn't got**.

- They like animals. They three dogs and two cats.
- Sardor a car. He goes everywhere by bicycle.
- Everybody likes Tokhir. He a lot of friends.
- An insect six legs.
- I can't open the door. I a key.
- What's wrong? I something in my eye.
- I'm not going to work today. I a bad cold.
- Sohiba is going to the dentist. She toothache.



Your teacher DINORA

Hello, my _____
Lobar.

_____ Lobar. I'm Sevinch.
I'm from Uzbekistan. _____
are you from?

_____ from Spain.
Nice to meet _____.

Nice to meet you _____.

Complete with the words in the box.

HELLO

TOO

NAME'S

WHERE

YOU

I'M

RIDDLES (Topishmoqlar)

It has many clothes,
 If it takes off all, disappear himself whole.



I have round orange jacket,
 Then inside a yellow shirt.
 A lot of little golden coins,
 Hooked to my sweetie shirt.



Kumush TURGUNOVA,
 the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

Painter: SUMBULA

chuqur bilimi, cheksiz iqtidori bilan yuksak marralarni zabt etishmoqda

Muxbir safardan qaytdi

ONA DUOSI IJOBATI

«Obuna - 2017» ta'biirlari doirasida Farg'ona viloyatidagi bir qator umumta'lim maktablarida bo'lib, o'quvchi va murabbiylar bilan uchrashuvlar o'tkazdik.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan, bu sohada alohida o'mak ko'rsatib, davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'layotgan fidoyi ustoz-murabbiylar bilan tanishdik. Ana shunday el ardog'idagi insonlar qatorida Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi 1-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi Mohiraxon Hojiqulova ham bor. Ustozning fidokorona mehnati munosib baholanib, 1-oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandi.



1-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilari sevimli ustozlarini yuksak mukofot bilan qizg'in qutlashmoqda.

– Institutni imtiyozli tamomlab, Dang'ara tumanidagi 22-umumta'lim maktabida ish boshladim, – deydi ustoz suhbatimiz avvalida. – Dunyoga mashhur Oksford til o'rganish markazida malakamni oshirib qaytdim. Mustaqillikka erishgan yildan mazkur ilm dargohida ishlab kelmoqdaman. 2000-yilda «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishonga sazovor bo'ldim.

O'quvchilarimda chet tillarini o'rganishga havasi kuchli. O'tgan o'quv yilida shogirdim, 8-«B» sinf o'quvchisi Gulasal Umarova «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Xalqimizda «Ona duosini olgan farzand aslo kam bo'lmaydi», degan dono naql bejizga aytilmagan. Ustozning onalari Saodatxon aya Yo'ldosheva bu yil sakson bahorni qarshiladilar. Ularning duolari ijobati sifatida Mohiraxon Hojiqulova el orasida obro'-e'tibor qozonib, davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo'ldi. U kishining farzandlari ham ona izidan borishmoqda. To'ng'ich qizi Nozimaxon Ergasheva 16-umumta'lim maktabida ingliz tili fanidan dars beradi. Mohidilxon Muhammadjonova bu yil Qo'qon pedagogika institutiga grant asosida o'qishga kirdi. Umumta'lim maktabida tahsil olayotgan kenjatoy Mohinurxon ham oila an'anasini davom ettirib, kelgusida ingliz tili muallimasi bo'lmoqchi.

Nima ham derdik, faqat omad tilaymiz.



Asrning mo'ljzasiga aylangan Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li hamda Qamchiq tunneli haqida dunyo bildi. Teleekran orqali takror-takror ko'rdik, qalbimizdagi hayajondan dunyo yanayam kengayib ketgandek bo'ldi. Ammo oynayi jahon orqali tomosha o'z yo'liga, ko'zing bilan ko'rganing boshqa ekan. Buni Toshkent-Andijon yo'nalishi bo'yicha poyezdga shipta olgandayoq his qildik.

Poyezdga chiqdik. Yo'lovchilarning chehrasida xushkayfiyat. Har qadamda qo'lingizdan yuqingizni olayotgan yosh vagon kuzatuvchilarining ko'magidan dil yayraydi.

TO'GARAK A'ZOLARINING MUVAFFAQIYATI

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 20-umumta'lim maktabida sportning belbog'li kurash turi bo'yicha to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ayni kunda 60 nafar o'quvchilar shug'ullanayotgan mazkur to'garakka sport ustasi Hakimjon Muhiddinov murabbiylik qilmoqda. Quvonarlisi, sportchilarning yarmini qizlar tashkil etadi. Kurashchilarning o'tgan davr mobaynida erishgan muvaffaqiyatlari maqtasa arziguulik.

Joriy yilning aprel oyida Xorazm viloyatida belbog'li kurash bo'yicha o'tkazilgan Respublika birinчилиgida 9-«A» sinf o'quvchisi Madinabonu Ismoilova 2-, Madinaxon Nabiyeva 3-o'rinni egalladi. Namangan viloyatida o'tkazilgan musobaqada esa 9-«A»dan Nilufar O'rmonova 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Chimiyonda o'tkazilgan musobaqada 7-«B» sinfdan Fayozbek Abdullayev 1-o'rinni egallab, g'oliblik shohsupasidan joy egalladi. Sentyabr oyida Navoiy viloyatining Nurota tumanida o'tkazilgan O'zbekiston kubogi musobaqalarida 7-«A» sinf o'quvchilaridan Abbas Akbarov 2-, Mohinabonu Abdusamatova, Mohinabonu va Durdonaxon

Bahromjonova o'z vazn toifasida 3-o'rinni zabt etdi. Shuningdek, o'tgan yillarda Rossiyaning Jozon shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida maktab o'quvchilaridan E'zoza Ismoilova va Jahongir Qobulovlar o'z vazn toifalarida 2- va 3-o'rinni qo'lga kiritishdi. Ta'lim muassasasining nafaqat tumanida, balki viloyatda belbog'li kurash bo'yicha nom qozonishida sportsevarlarga barcha sharoitlarni yaratib bergan maktab rahbari Hilolaxon Hakimovanning o'rni katta.

Ha, aytmoqchi, murabbiy Hakimjon Muhiddinov Istiqolga erishganimizning 25 yilligi arafasida «Mustaqillikning 25 yilligi» esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Fursatdan foydalanib, biz jonkuyar ustozlar hamda tirishhoq sportsevarlarga omad hamisha yor bo'lsin, deymiz.

bonu Abdusamatova, Mohinabonu va Durdonaxon

MUSLIMAXON «BILIMLAR BELLASHUVI» G'OLIBI

«Bilimlar bellashuvi-2016»ning respublika bosqichida viloyatdan jami 28 nafar 7-8-sinf o'quvchilari ishtirok etib, 17 ta faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Muslimaxon Nuraliyeva, Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi. – Men «Bilimlar bellashuvi»ning maktab, shahar, viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o'rinlarni egalladim. Buning uchun avvalo, ota-onam, sevimli ustozim, sinf rahbarim Gullola Odilovadan cheksiz minnatdorman. Kelajakda ular orzu qilgandek jonajon Vatanimga munosib farzand bo'laman.



Tanishdik – Akbar Tursunov, u yaqindagina temir yo'li kollejni tugatib ish boshlaganini aytdi. U bizni tabassum bilan 9-vagonga kuzatib qo'ydi.

Yumshoq o'rindiqlarga singib ketgandek bo'ldik. Poyezd qo'zg'aldi, zum o'tmay tabiatning harir pardasi silkinib ketdi, go'yo: kengliklarda qanot qoqqan laylaklar xotirjamgina uyalariga qo'nib, atrofini kuzatmoqda. Har chaqirimda shu holat takrorlanadi. So'ng yo'l yo'lida davom etadi: bunda bunyodkorlikning shiddatli shijoati qadam tashlaydi. Eh-he... ularni qog'ozga tushirish uchun...

Poyezd tog'lar oralab yurib ketadi. Ohista, yo'lovchini avaylagandek, go'yo. Tog'lar sukunati sirli – qator terilgan qoyalar Mirzo Boburning yod bo'lib ketgan g'azallarini saf tortib aytayotgandek bo'ladi.

Sal o'tmay Otabekning tulpori bir kishnab boshini buradi – Marg'iondan Toshkentga qarab. Tizginsiz xayollar olib qochadi. Biz Andijonga qancha fursatda yetib kelganimizni sezmay qoldik.

14 DAN 5-O'RINGA CHIQIB OLGAN BILIMDONLAR

Ildorbek Umarov, Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi DTS monitoring bo'limi boshlig'i:

– 2014–15-o'quv yilida viloyat o'quvchilarining «Bilimlar bellashuvi»dagi o'rni respublika reytingida 14-o'rinda edi. Quvonarlisi, bu ko'rsatkich 2015–16-o'quv yilida 5-o'rinni egalladi. Bu yutuqlarga, albatta, fidoyi ustozlarning sa'y-harakatlari, qolaversa, o'quvchilarning tirishhoqliqi, izlanuvchanligi sababdir.

Shuningdek, viloyatimizda «Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash» tanlovi o'tkazildi. Bellashuvning viloyat bosqichida g'olib bo'lgan jami 100

nafar 7–8-sinf o'quvchilari, viloyatdagi barcha davlat ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati o'quvchilari o'rtasida haftaning shanba kunlari qo'shimcha tarzda sinov o'tkazib borildi.

Mazkur sinovlarda har bir o'quvchi tomonidan ishlangan yozma va test materiallari hakamlar hay'ati tomonidan o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga tahlil qilib berildi. O'quvchilar tomonidan bo'sh o'zlashtirilayotgan mavzular aniqlanib, fanlar va sinflar kesimida metodik tavsiyalar, dars ishlamlari ishlab chiqilib, joylarga yetkazildi.




BO'LAJAK CEMPIONLAR

Andijon sporti dovrug'i bugun barchaga ma'lum. Viloyatning shahar va har bir tumanidagi maktablarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

Markazda joylashgan 30-umumta'lim maktabida bo'lganimizda, bunga yana bir karra guvoh bo'ldik. Sinfxonalarga Olimpiada chempionlari Hasanboy Do'stmatov va Ruslan Nuriddinovlarning g'alaba onlari muhrlangan suratlari ilib qo'yilgan. Ko'zni quvnatadigan maktab formasidagi o'quvchilar bilan tanishdik: Muhammad Imron Jo'raboyev – 3-sinf, taekvando bilan; Muhammadiy Hamidullayev – 4-sinf, ushu bilan; Asal Abidova – 4-sinf, gimnastika bilan; Muhammad Toshtemirov – 4-sinf, suzish bilan; Muhammad Abdulloh Komiljonov – 4-sinf, aykido bilan shug'ullanadi. Ular ertaga shu yurtga munosib farzandlar bo'lib, mam-lakat bayrog'ini ko'taradiganlar safiga qo'shiladi.

Ota-onalari ism tanlaganda Muhammadqodir Abdullayevga havas qilib, katta niyatlar qilishgan. Donishmandlar, ulug'lik ham tomir suradi, deb bejiz aytishmagan.



BARAKALLA, SARVINOZ!



Sarvinoz EGAMOVA bu yil «Bilimlar bellashuvi»ning Respublika bosqichida 2-o'rinni egallab, viloyat hokimi stipendiati sohibasi bo'ldi.

Bugun xorijiy tilni mukammal o'rganish har bir yoshning maqsadiga aylangan. Xalqimizda, «Til bilgan - el biladi», deb bejizga aytilmagan. Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Sarvinoz Egamova ham fransuz tilini ishtiyoq bilan o'rganayotgan yoshlardan. U bilimga chanqoqligi, izlanuvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Maktabda a'lo baholar va namunali xulqqa ega bo'lgan Sarvinoz darsdan bo'sh vaqtlarida fransuz tilidagi kitoblarni mutolaa qilishni xush ko'radi. Ayniqsa, bu tildan ertak, mitti hikoyalar, xandalarni tarjima qilishga juda qiziqadi. Quyida yosh iqtidor egasining ijod namunalari biri bilan tanishasiz.

BU MENING AYBIM EMAS...

Pol maktabga kechikib keldi. O'qituvchi undan: — Pol, nega maktabga kechikib kelding? — deb so'radi. — Janob, bu mening aybim emas. Men maktabga vaqtida kelayotgandim, ammo yo'lda: «Sekinroq yuring, maktab!» degan yozuv bor ekan, men shunga amal qilib, sekinroq yurdim-da... — javob berdi Pol.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent Matbaa va noshirlik kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim emas, ayni bizning zamonda Tabassumxon degan qizaloq bor ekan. U judayam samimiy, har doim kulib yurardi. Atrofdagilarga kulgi ulashib, ularning kayfiyatini ko'tarishni yaxshi ko'rarkan. Uning birgina kamchiligi: shokolad va konfetlarni ko'rganda sira nafsini tiyolmas ekan. Bir kuni uning yuziga qayg'u alomatlari soya tashlabdi. U shu kundan boshlab kulmay qo'yibdi. Atrofdagilar esa bundan hayron bo'lishibdi.

Tabassumxon maktabga ham bormay, «Voy tishim!» deganicha o'rin ko'rpa qilib yotib olibdi. Oxiri tish do'xtiriga borishga majbur bo'libdi. Shifoxonada bemor tengdoshlari ko'p ekan. Ulardan biri Shirinxonning tishlari karies tufayli qorayib qolibdi.

— Dugonajon, shirinlikka ruju qo'yanimdan jag' tishlarimda kovaklar paydo bo'ldi. Endi ovqat ham yeya olmayman, — deya nolibdi Shirinxon. — Issiq sho'rva yoki sovuq suv ichganimda tishlarim og'rib ketayapti.

Shifokor qabuliga navbat kutib turganlar orasida iyagiga oq mato bog'lab olgan Shakarboyning ham shokolad va shirinliklarni ko'p yeganidan tishlarida kovak chuqurlashib, asab to'lari ochilib qolibdi.

Xullas, bemorlar birin-ketin shifokor qabuliga kirishibdi. Navbat Tabassumxonga kelibdi. Uning tishlarini ko'rgan shifokor shirinlikni me'yordan ortiq iste'mol qilish, tishlarni vaqtda

4-5 yoshga to'lishingiz bilanov, tashlab ketadi. Aksincha, meva va sabzavotlardan ko'proq iste'mol qilsangiz, 9-13 yoshda sut tishlaringiz doimiy tishlarga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Kata bo'lganingizda og'zingizda 32 ta qator tizilgan dur-marjonlar bo'ladi. Ularni doimo parvarishlab ehtiyot qilsangiz, sizga bir umr xizmat qiladi.

Shifokor o'z ishini yakunlabdi. Oynaga qaragan Tabassumxon tishlarining yana o'z holiga qaytganidan rosa sevinibdi. Oldingidek jilmaygan ekan, uning tabassumiga hamma mahliyo bo'libdi. Endi u o'rtoqlariga tishlarni avaylash, ular bilan yong'oq chaqmaslik, ruchka va qalamlarni tishlamaslik haqida tushuntira boshlabdi. Shifokorning «Har uch oyda tish cho'tkalarni yangisiga almashtirish kerak! Ovqatlangandan keyin og'izni chayish lozim, tishlarni yuvayotganda suvni isrof qilmasdan, jo'mrakni berkitib turish shart!» degan gaplarini ham do'stlariga yetkazibdi.

Barchinoy ABDUTOLIPOVA,
poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 6-IDUM 6-sinf o'quvchisi



Marvaridlar malikasi

(Ertak)

yuvmaslik noxush oqibatlariga olib kelishi haqida tushuntiribdi: — Agar tishlaringizni ertalab va kechqurun yuvishga odatlanmasangiz va har olti oyda stomatolog ko'rigidan o'tmasangiz, tishlar sizdan arazlaydi va

DADAJONIM

Dadajonim, Baxtiyor Har ishlarida omad yor. Kulsu dunyo charaqlar Bulutlari yo'qolar.



Niyatim — baxtli bo'ling, Orzuingizga yeting. Onajonim bilan birga Baxtli hayot kechiring.

Nozima MAHKAMOVA,
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

BIZGA MEHRI ZIYODA

Mehr yog'ar yuzlaridan, Nur sochilar ko'zlaridan. Ibrat oldim so'zlaridan, Mehridaryo keksalarim.

Har bir yuning fayzi ular, Ota-ona baxti ular. Qalbimizning taxti ular, Mehridaryo keksalarim.

Doim qo'li duodadir, Bizga mehri ziyodadir. Tinchlik degan dunyodadir, Ko'ngli osmon keksalarim.

Sevara ABDUVAHOBOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 11-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

BILIMLAR BELLASHUVI



«Bilimlar bellashuvi», Bizlar uchun zo'r sinov. Kim-ki ilmga mohir, Yo'lida bo'lmaydi g'ov.

O'zimizga ishonchni, Mustahkamlab olamiz. Bellashganda har qachon, Do'stlashib olamiz.

Bu do'stona uchrashuv, Barchaga omad kulsin. Ustozlarning oldida, Yuzimiz yorug' bo'lsin.

Diyora HAMIDULLAYEVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 263-umumta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi

Xushxabar

Kuni kecha Rumuniya poytaxti Buxarest shahrida sambo bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida ishtirok etgan yosh polvonlarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yakunda 2 ta oltin, 3 ta kumush va 11 ta bronza medalga sazovor bo'lishdi. E'tiborlisi, hali o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida sportchilarimiz oltin medalni qo'lga kiritmagan edi.



JAHON CHEMPIONATIDAN 16 MEDAL

Rossiya, Bolgariya, Marokash, Fransiya kabi dunyoning 30 dan ziyod davlatidan 374 nafar sambochi ishtirok etgan dunyo birinchiligida O'zbekiston terma jamoasining 25 nafar a'zosi ham medallar uchun bahs olib bordi.

Dashtlab, 60 kilogramm vaznda gilamga chiqqan Ubaydullo Mo'minov barcha raqiblarini mag'lub etib, final bahsiga yo'llanma oldi. Hal qiluvchi bellashuvda rossiyalik Dzyamko-Gamulets Romanga qarshi bel olishgan yosh polvonimiz yakunda jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, 68 kilogramm vaznda ona yurtimiz sharafini himoya qilgan Fazliddin Xolmamatov o'z iqtidori bilan barchani hayratga soldi. U final bahsida bolgariyalik Ivan Xarkovga hech qanday imkoniyat qoldirmay, jahon chempionati g'olibligini qo'lga kiritdi.

TO'RTKO'LLIKLAR G'OLIB

Mam-lakatimiz umum-ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida futbolni yanada rivojlantirish, iqtidorli sportchi yoshlardan tashkil topgan jamoalar ishtirokida turli musobaqalar uyushtirish kutilgan samaralar ber-moqda.

lari birinchilikni qo'lga kiritdi. Qoraov'zak tumanidagi 28-umumta'lim maktabi jamoasi 2-, qo'ng'iro'tlik 39-umum-ta'lim maktabi o'quvchilari 3-o'ringa loyiq topildi.

To'rtko'llik futbolchilar endi mam-lakat bosqichida kuch sinashadi.

Shukrulla G'ULOMOV



O'ZBEK TAEKVANDACHILARI okean ortidan g'alaba bilan qaytishdi

Taekvando farzandlarimiz o'rtasida eng ommaviylashgan Sharq yak-kakurashlaridan biri sanaladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu sport turini yosh avlod o'rtasida yanada ommalashtirish, uning moddiy texnik bazasini mustahkamlash yo'lida qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Buning samarasi o'laroq, yurtimizning chekka-cheikka qishloq hududlaridan ham ko'plab Osiyo va jahon chempionlari yetishib chiqmoqda.

Yaqinda okean ortidan ajoyib xush-xabar oldik. Amerika Qo'shma Shtatlarida taekvando ITF bo'yicha o'tkazilgan XII Big Apple xalqaro turnirida yosh taekvandochilarimiz ulkan g'alabalarni qo'lga kiritib, barchamizni xush-nud etishdi.

Ushbu nufuzli turnirda Meksika, Argentina, Belarus, Tojikiston, Puerto-Riko, Nepal, Efiopiya, Bangladesh, Kanada va O'zbekiston mamlakatlaridan jami 400 nafardan ortiq sportchilar g'oliblik uchun o'zaro bahslashdi.

10-11 yoshlilar o'rtasidagi bellashuv-



larda yosh sportchimiz Umar Abd-udvohidov til va sparing bahslarida 1-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqlagan bo'lsa, 16-17 yoshlilar o'rtasida-gi bahslarda Botirali Merkamedbayev ham ikkita yo'nalishda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Bobirali Merkamed-bayev ham o'z vazn toifasida tengsiz ekanini isbotladi.

Sa'dullo TURSINOV

NODIRBEK SOVRINDORLAR SAFIDA

Yaqinda Rossiyaning Xanti-Mansiysk shahrida shaxmat bo'yicha 14, 16 va 18 yoshli shaxmatchilar o'rtasida jahon chempionati o'tkazildi. Musobaqada dunyoning oltmishdan ziyod davlatidan kelgan to'rt yuzdan ziyod yosh shaxmatchi g'oliblik uchun o'zaro bahslashdi.

Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada yosh aql gimnastikachilarimiz har doimgidek munosib ishtirok etishdi. Jumladan, chempionatning 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslar-da qatnashgan hamyurtimiz Nodirbek Yoqubboyev o'n bir imkoniyatdan sakkiz ochko jamg'ardi va yakunda bronza medalni qo'lga kiritib, g'oliblar safidan joy egalladi. Iqtidorli shaxmatchimiz musobaqada shri-lankalik Tilakartne, braziliyalik Lukas Pikkoli, xitoylik Xongchi Peng, latviyalik Ilya Semyonovni, AQSH vakili Devid Peng, rossiyalik Yaroslav Remizov va ukrainalik Kirill Shevchenkoni mag'lubiyatga uchratib, kanadalik Yeugene Xua va AQSH vakili Gebriel Sem bilan durang o'ynadi.

Shaxmatchilarimizga galdagi musobaqalarda ham omad va zafarlar ti-lab qolamiz.

Shavkat KAZAKBAYEV

NAFOSAT MALIKALARI BELLASHUVI

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Farg'ona viloyati Kengashi, viloyat xalq ta'limi, madaniyat va sport ishlari boshqarmalari hamkorligida Farg'onada badiiy gimnastika bo'yicha «Kamolot» g'unchalari musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Turnirning quyi bosqichlari-da to'rt mingdan ziyod sportchi qizlar ishtirok etishgan bo'lsa, navbatdagi bellashuvda g'oliblar besh yosh toifasida o'z mahoratini namoyish etishdi.

Nafosat malikalarining betak-ror harakatlari chamanzordagi guldand gulga qo'nayotgan ka-palaklar raqsi misoli barchaga xushkayfiyat ulashdi. Musobaqa so'nggida g'oliblar aniqlandi. Farg'ona shahri vakillaridan Mohlaroy Rahmonqulova, Gul-hayo Rahmonova, Nozima Hu-sanboyeva, Madina Rizayeva, Hulkaroy Ro'zmatova 1-o'rinni egallashdi. G'oliblar bellashuv-


ning Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Zarnigor MUSAYEVA



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

**«ONA TILIM»
TOPQIRLIK MASHQLARI CHAYNVORDI**



1. Turkiy tilni ulug'lagan mumtoz mutafakkir shoir, «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz» hikmati muallifi. 2. Gappa qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'z. 3. Gapning predmet belgilarini anglatadigan ikkinchi darajali bo'lagi. 4. Matnning ayrim yeriga kiritilgan qo'shimcha ma'lumot. 5. Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini anglatuvchi, ikkinchi darajali qismi. 6. Istiqloq yillarida qo'llanilayotgan yozuv. 7. So'z ustasi. 8. Kelishiklardan biri. 9. Taxmin, faraz so'zlari ma'nodoshi. 10. So'zga qo'shilib, yangi so'z hosil qiluvchi til-birligi. 11. Grammatikaning nutq qurilishini o'rganuvchi bo'limi. 12. So'z turkumi. 13. Fe'ning mayl, zamon va shaxs-son shakllarida o'zgarishi. 14. Qat'iy talab etuvchi, zarur so'zlar ma'nodoshi. 15. Bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar. 16. Olmoshlarda: so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zgani ko'rsatuvchi so'zning lug'aviy shakli. 17. So'z o'zagiga qo'shilib uning ma'nosini o'zgartiruvchi qo'shimcha. 18. Biror ish-harakat, voqeaning yuzaga kelishida omil, bois. 19. Qo'shma gap tarkibidagi gaplardagi munosabatlarni ifodalash yo'li bilan ularni bir-biriga

bog'lovchi yordamchi so'z. 20. Aniqlovchining belgi – xususiyatlarini qo'shimcha, boshqa nom bilan ifodalovchi turi. 21. Rad etish mazmunidagi gap. 22. Harakat belgisini anglatuvchi so'zlar turkumi. 23. Izzat, hurmat, faxr so'zlari ma'nodoshi. 24. Gapdagi ish-harakatni bildiruvchi so'z turkumi. 25. Biror tilda muayyan paytda mavjud bo'lgan so'zlar majmui. 26. Qarama-qarshi ma'nodagi so'z. 27. Kishilik olmoshi. 28. So'zning asosiy ma'nosini bildiruvchi qismi.

**TOPSHIRIQ MAQOLLARDAGI
HIKMATLI SO'Z**

Quyida keltirilgan o'zbek xalq maqollaridagi tushirib qoldirilgan so'zlarni topib, chizmaga yozish orqali topshiriqni bajaring.

1. ... ko'rki maqol. 2. Tikansiz ..., sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas. 3. ... quroling soz bo'lsa, mashaqqatig o'z bo'lur. 4. ...li daraxtga tosh tegar. Endi javoblarni o'qish bilan o'rta asr qomusiy allomasi, vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yozib qoldirgan hikmatli so'zni bilib oling.

Tuzuvchi: **Foziljon ORIPOV**

Turob YUSUF

G'ALATI SURAT

– Farid, chizgan rasmingga Tushunmadim mutlaqo. «O'tloq» deb nom qo'yibsan, Maysadan yo'q hech vaqo.



– Fahming kam bo'lgach senga, Ayon bo'larmi sirlar. O'tlarni ochiqqanda, Yeb ketishgan sigirlar.

– Ko'rinmaydi ular ham, Qay joyni band etishgan?!
– Qorni to'ygach bolalar Uygay haydab ketishgan.

AJABLANISH

Boshi-yu, qosh-u ko'zin, O'zimniki, der hamma. Menga-chi, boshga gapni, So'zladi boya ammam.

Gapiga qaraganda, Burnim otamnikimish. Jingalak sochim xuddi, Akam Hotamnikimish.

Ko'zim oyimniki-yu, Tog'amnikimish qoshim. Bunday qiziq gaplardan, Aylanib ketdi boshim.

Xayolan bari bir-bir, Ko'rinmoqda ko'zimga. Men axir kimman unda, O'xshamasam o'zimga?!



N. SHAVKATOVA
chizgan rasmlar

Pazanda qizga!



Kuz faslida inson organizmida darmondarilarga ko'proq ehtiyoj seziladi. Bugun sizlarga ko'katlardan tayyorlangan salatni tavsiya qilmoqchimiz. Darmondorilarga boy ushbu salatni tayyorlab ko'ring, u albatta, oila a'zolaringizga ham xush yoqadi.

KO'KATLI SALAT

Kerakli masalliqar: bir bog' salat bargi, 4 ta qaynatilgan tuxum, 120 gramm smetana, 1 choyqoshiqda ukus, 1 choyqoshiqda shakar, ta'bga qarab tuz.

Tayyorlanishi: qaynatilgan tuxumlar somoncha shaklida, salat barglari esa yirik to'g'raladi va smetana bilan aralashtiriladi. Tuz, shakar, ukus bir xil ko'rinishga kelguncha aralashtiriladi. Unda mayda kristallar yo'q bo'lib ketishi kerak. To'g'ralgan mahsulotlarni avvalo, likopchaga solib, so'ngra ustidan ukusli aralashma quyiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



Tong yulduzi
Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLIOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fond.

Bosh muharrir
Feruz A. DILOVA
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir GANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi – 25701 Buyurtma – S 7250

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilindi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08